

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING "ILK QADAM" DAVLAT O'QUV DASTURI ASOSIDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA ISHLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Kamiljanova Zuxra Zafarjanovna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarda ishlashning o'ziga xosligi va bolaning erkin faoliyatida markazlarning ahamiyati haqida ilmiy mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Ilk qadam", Davlat standarti, maktabgacha ta'lim, muqobil, parsial, texnik konstruktiv, bilimlar dunyosi, birinchi qadam, birinchi muvaffaqiyat, umuminsoniy qadriyatlar, komponent, integratsiya, globallashuv.

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ В ЦЕНТРАХ РАЗВИТИЯ НА БАЗЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ «ПЕРВЫЙ ШАГ» ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье приводится научное наблюдение об уникальности работы в развивающих центрах на базе государственной программы дошкольной организации образования «Илк кадам» и значении центров в свободной деятельности ребенка.

Ключевые слова: «Илк кадам», Государственный стандарт, дошкольное образование, альтернатива, частичный, технический конструктив, мир знаний, первый шаг, первый успех, общечеловеческие ценности, компонент, интеграция, глобализация.

CHARACTERISTICS OF WORKING IN DEVELOPMENT CENTERS ON THE BASIS OF THE "FIRST STEP" STATE CURRICULUM OF THE PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Abstract: In this article, there is a scientific observation about the uniqueness of working in developmental centers based on the "First Step" state curriculum of the preschool education organization and the importance of the centers in the free activity of the child.

Key words: "Ilk kadam", State standard, preschool education, alternative, partial, technical constructive, world of knowledge, first step, first success, universal values, component, integration, globalization.

Dunyo mamlakatlari jadal rivojlanayotgan, integratsiya va globallashuv jarayoni faol amalga oshayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni yetuk, barkamol, aqlan, jismonan sog'lom, ruhan kuchli, ma'nan boy bo'lib o'sishlari uchun keng sharoitlar yaratib berilmoqda [3].

Prezidentimiz tomonidan bugungi kunda maktabgacha ta'limga berilayotgan e'tibor tufayli amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar maqsadli qilib belgilab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim sohasi davlat e'tibori darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlarda bu o'zining aksini topmoqda. Mamlakatimizda tashkil etilgan maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qisqa fursat ichida sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yaqqol ko'zga tashlanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi 595-sonli qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli qarori [2], O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 2022 yil 4-fevralda 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr uchun tavsiya etilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi [3]da maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari, o'quv tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek bolani ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdagi asosiy komponentlari belgilab berilgan.

Maktabga chiqib ulgurmagan bolajonlarning o'qishni, yozishni, ajoyib tasvirlarni chizishni, axborot texnologiyalarini tezkorlik bilan o'zlashtirib olayotgani shundan dalolat beradi. Endi biz ularning qiziqishlari, qobiliyatlariga mos ravishda sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun avvalgi foydalangan dasturlarimizga suyanib qola olmaymiz. Aynan yosh avlodga mana shunday sifatli ta'lim-tarbiya berishda maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining o'rni beqiyosdir [5].

Davlat o'quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat maktabgacha ta'limning muqobil, parsial, moslashtirilgan

dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir. Davlat o'quv dasturi ikkinchi nashrining asosiy jihatlari uning muqobilligi, moslashuvchanligi, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda har bir bolaning ta'lim ehtiyojlariga qaratilganligidir. Dasturning falsafiy mazmunidan ham anglash mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolajonlarning bilimlar dunyosiga birinchi qadami, birinchi muvaffaqiyati, go'zallik, yaxshilik, samimiyluk-umuminsoniy qadriyatlarini tarbiyalashning ilk asoslari hisoblanadi [3].

Yangi avlod dasturining bir nechta afzalliklari mavjud.

Birinchi navbatda bolalarni bilim olishga o'rgatish emas, balki qiziqishlarini oshirishdir. Pedagog-xodimlar uchun birinchi marotaba maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturida mavzuviy-reja tuzib berildi. Bu albatta pedagog-xodimlarning ishini birmuncha yengillashtiradi. Haftalik mavzularni o'rgatishda bolalarni o'zlari xohlagan markazlarda erkin faoliyat bilan shug'ullanishlariga alohida ahamiyat berilgan. Qachonki bola o'z qiziqishlari asosida o'rgansagina berilayotgan ma'lumotlarni tez o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglar tomonidan ta'lim faoliyatini tashkil etishda birinchi navbatda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish, zamonaviy maktabgacha ta'limning ilmiy konsepsiyasi hisoblanadi [5].

O'quv jarayonini mavzuli tarzda tuzish tamoyili hududiy, milliy, madaniy komponentlarni singdirish va bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi va har bir bolaning ilk shaxsiy xususiyatlarining shakllanishiga, uning imkoniyatlari, qiziqishlari va rivojlanishini hisobga olish zarur. Bolaning faoliyati alohida harakatlardan tashkil topgan bo'lib, biror bir natijaga erishish uchun yo'naltirilgan maqsad va kuchlarga qaratilgandir [4]. Shuning uchun bolalarning faoliyati birinchi navbatda harakatlari, intilishi va uning natijasini inobatga olmoq darkor. Kattalar bir tomondan bola faoliyatining eksperti bo'lsa, ikkinchi tomondan uning hamkori sifatida namoyon bo'ladi va uchinchi, to'g'ri tashkil etilgan faoliyat bolaning o'z-o'zini nazorat qilishga va yo'naltirishga, mustaqil bo'lishga undaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida erkin faoliyat turi beshta asosiy ta'lim markazlarida olib boriladi [5]. Bular:

Qurish-yasash va matematika markazi.

Qurish-yasash bola faoliyatidagi murakkab turdagi faoliyatdan biri hisoblanadi. Bunda biz kattalarning badiiy, texnik konstruktiv aloqalarini ko'ramiz. Inson-bu yaratuvchi kuch. Bu uning shaxsiyatidagi asosiy sifatlaridan biridir. Bolada ijodkorlik xislati kichik yoshdan shakllana boshlaydi. Bu ijodkorlik qurish-yasash faoliyatida namoyon bo'ladi. Qurish-yasash markazi bolalarga binolar qurish, balandlik nima, og'irlik nima ekanligini anglash imkonini beradi. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni hosil qilishlariga

yordamlashadi. Qurish-yasash faoliyati bolaning mayda mushaklarini rivojlantiradi, bolada o'yin faoliyatini shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Ushbu markazda bolalarga ilk matematik ko'nikmalar beriladi. Bolalar mustahkam, foydali matematik bilimlarni o'zlari o'rab turgan dunyodan oladilar. Ushbu markazda boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va sohib tashlashi mumkin bo'lgan narsalar to'planadi. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Bunday materiallar ham aqliy qobiliyatni o'stiradi, ham nozik harakatlanishni rivojlantiradi, ham o'zini boshqarishni o'rgatadi.

Til va nutq markazi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri nutqni to'g'ri shakllantirishdan iborat. Bolaning nutqi qanchalik boy va ravon bo'lsa, u o'z fikrini keng bayon eta oladi, atrof olamni anglash imkoniyati kengayadi, kattalar va tengdoshlari bilan mazmunli muloqotga kirishadi, ruhiy rivojlanishi faollashadi. Shuning uchun tarbiyachi bolaning nutqini o'z vaqtida to'g'ri shakllantirish ustida ishlashi lozim. Bola nutqining rivojlanishida tarbiyachi nutqining ahamiyati katta. Ona tilida mukammal so'zlashgan, nutq madaniyati to'g'ri shakllangan, talaffuzda toza, ravon nutqqa ega tarbiyachi –bola uchun eng birinchi nutq o'stiruvchi manba hisoblanadi. Mashg'ulotlarning muntazam ravishda olib borilishi, bola bilan suhbatlar uyushtirish, tarbiyachilar tomonidan nutq va til markazining to'g'ri jihozlanishi, bola nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tinch markaz bo'lib, bu markazda bolalar kitoblarni ko'rib chiqishlari, bir-birlariga "o'qib berishlari" mumkin, shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu (syujet)larni o'ylab topish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish.

Bolalar ruhshunosi va pedagoglarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlarga qiziqish 3 yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Bola ilk yoshlarida atrof-olam to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'la boshlaydi, keyinchalik predmetlar bilan harakat qila boshlaydi va o'zining harakatlarini rivojlantiradi. Bolalikdagi o'yinlar tarbiyaviy xususiyatga ega. O'yin yordamida bolada muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi va aqliy qobiliyati rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan o'ynaladigan syujetli-rolli o'yinlarning maqsadi o'ylab topilgan vaziyat orqali bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. O'yin qadim zamonlardan boshlab ta'limiy ahamiyatga ega ekanligi hammaga ma'lum. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar nafaqat kattalarning hayotiy vaziyatlariga taqlid qilishadi, balki ushbu vaziyatda o'zlarining talqini bo'yicha harakat qilib, o'z fantaziyasi asosida voqealar rivojini o'ylab topadi. Ijodiy o'yinlarda bolalar xayolot olamining cheki yo'q. O'yinlar mazmuniga qarab bolalar

sartarosh, vrach, oshpaz, o'qituvchi va hokazolar bo'lishi mumkin. Bolalar mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini syujetli-rolli o'yinlarda tadbiq etishadi.

San'at markazi.

O'z ichiga rasm, loy ishi va yelimlashni qamrab oladigan tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolaning eng qiziqarli faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. U bolaga o'z tasvirlarida atrof-olam to'g'risidagi taassurotlari va unga bo'lgan munosabatni aks ettirish imkonini beradi. Shuning uchun guruhda san'atni hissiy ifodalash va estetik rivojlantirishga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Bunda san'at markazi muhim rol o'ynaydi. Bolalarda kichik sahnachalarni o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun zarur bo'lgan chiroyli kiyimlar va boshqa har xil qo'lda yasalgan kostyumlardan foydalanish mumkin. San'at markazining vazifasi: Badiiy-tasviriy faoliyat jarayoniga bo'lgan emotsional munosabatni va yorqin ifodali obrazlarni yaratish istagini tarbiyalash;

Ranglar bilan mustaqil tajribalar o'tkazish istagini shakllantirish (ranglarni bir-biriga qo'shish orqali boshqa ranglarni hosil qilish)

Ijodiy qobiliyatlarni va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish (gil, loy, trafaretlar bilan ishlash).

Fan va tabiat markazi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faoliyatini to'laqonli rivojlantirishda fan va tabiat markazining tashkil qilinishi juda muhim bo'lib, bu markaz bolaning qiziqishi, fikrlashi va ijodiy faolligini oshiradi. Atrofdagi narsalar xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Markazdagi barcha jihozlar xavfsizlik talablariga javob berishi, bolaning erkin faoliyatiga moslashtirilgan (jihozlar bolaning bo'yi yetadigan qilib joylashtirilishi) hamda estetik tomondan jihozlangan bo'lishi kerak. Fan va tabiat markazi nafaqat guruhning bezash bo'libgina emas, balki o'z-o'zini rivojlantiradigan joy bo'lib xizmat qilishi zarur. Bu markazda bolalar tadqiqotlar o'tkazishga o'rganadilar. Ushbu markaz o'z qiyofasini bolalarning qiziqishlarini o'zgarishiga, yil fasllari o'zgarishiga va dastur bo'limlari mavzulari o'zgarishiga qarab o'zgartirib boriladi. Bolalar sayr qilish paytida o'simliklar, daraxtlar va hayvonlarni kuzatgan holda tabiatshunoslik fani asoslarini tushunib yetadilar, atrof-muhitni o'rganadilar. Tarbiyachi bu jarayonni boshqarishi va qo'llab-quvvatlashi zarur [5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan o'quv jarayonida tarbiyalanuvchilarni erkin faoliyatini ta'minlashda ularning qiziqishi, xohishi, imkoniyatlari hisobga olinishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.
4. Ahmedova H., Yudina T., Musulmonqulova G., Vahobova F., Rustamova M., Rasulova M. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'lanma. T:, 2000 y.
5. Sanayeva S.B., Xaydarova Sh.N. "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish". Toshkent:-2023. "Bookman print" nashriyoti. Darslik.
6. Хайдарова Ш.Н. Педагогический подход к подготовке воспитанников детского дома к семейной жизни. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)
7. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system. Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 11 November 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 |SCIENTISTS.UZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278>
8. Haydarova Shakhlo Narzullayevna. Strategies for improving children's tourism in the preschool education system. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. For joining Editorial Board of Journal of Pedagogical Inventions and Practices, Plano, Texas 75024, U.S.A. November - 2024